

**Qarshi Davlat universiteti,  
Pedagogika fakulteti  
“Tasviriy san’at va muhandislik  
grafikasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi  
E.To’rayevning  
« Kompozitsiya »  
fanidan tayyorlagan ma’ruzalar matni**

## **1.Mavzu. Kompozitsiya asoslarini o'rganishdan maqsad, amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriy san'at ustida ishslashni shakllantirish**

Kompozitsiya asoslarini o'rganishdan maqsad, amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriy san'at ustida ishslashni shakllantirishdan iboratdir. San'atda mazmun va g'oyaning yaxshi echimini, umum ijodiy mahoratini oshirish, nafosat tarbiyasining muhim omillaridan biridir. Har qanday ijodkor o'tmishdagi rang tasvir san'at ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir qonunlari va uslubiyatini ham o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari, uslubiy shartlari bo'lган soya-yorug', rang echimi hamda uning jozibadorligi, chiziqlar, tus dog'larini ketma-ket takrorlanib uzviylik xosil qilishi, katta va kichik o'lchamlar bilan belgilangan nisbat perspektiva o'zgarishlar munosabatlari, ko'rish burchagi birgalikda ishlar mazmunini ochib beruvchi vosita bo'lib hizmat qiladi.

Kompozitsiyaning tuzilishi va turlarini o'rganishda g'arb va Sharq tasviriy san'ati maktabi va ijodkorlari asarlaridan bir qanchasining namunalari misol bo'lishi mumkin. Kompozitsiya turlarini o'rganishda nafaqat realistik rang-tasvir, balki monumental asarlar kompozitsiyasini, amaliy san'at turlari, kartina satxini ifodalovchi perspektivasiz kompozitsiya tuzilishini ham o'rganish tavsiya etiladi. Shu bilan birga ijodkorlar fantaziysi tasovvurini boyitadigan tabiat dunyosi, suv osti dunyosi, tabiatdagi tasadifiy vokealardan tasavvur olib, kartina echimida foydalana olishi mumkin.

Kartina yaratishda xalqlarning milliy xususiyatlarida, kiyimlarni o'sha erga taaluqli manzara xususiyatlarini uslubiy jihatdan o'rganish kerak.

Rang tasvirni arxitektura, teatr haykaltaroshlik, musiqa, adabiyot va sheriyat bilan bevosita bog'lash kompozitsiya mazmunini boyitadi kompozitsiya har taraflama chuqur o'rganish ishi ma'lum vaqt shaxsiy ish tajribasini, mahorat va chuqur idrokni talab qiladi. Turli davrlardagi san'at jamiyani yangi shakl, yangi ilg'or tushuncha bilan boyitib alohida o'ziga xos mazmun kiritadi. Jamiyatning qurish imkoniyatlari, idroki o'shishi bilan san'at olamida har doim eskirib qolgan turmush g'oyalari, turg'unlik bilan yangi oqimlar o'rtasida kurash boradi.

Kompozitsiya so'zi lotinchadan kompositsiyani predmetlarini bo'laklarini solishtirib, ma'lum tartibda yahlit joylashtirish, g'oyaga muvofiq ijod qilish, bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir. Ijodkor rassom bo'lism uchun san'atga yoshligidan qiziqgan bo'lishi kerak. Ijodkor bo'lism uchun insonda qobiliyatning bo'lismini o'zingga kifoya emas, undan 10 ta sifat tilab etiladi. 10 dan

bir sifat iste'dod, talant bo'lsa, 9 tasi vazminlik, mehnatsevarlik natijasida yuzaga chiqadi. Ijodkor hayotga atrof-muhitga befarq qaramaydi, jamiyatdagi tarixiy voqeа, tabiat o'zgarishlari unda ifodalash, fikrini uyg'otadi. Rassom hyotni chuqr o'rganish bilan birga ko'rgan taa'surotlarini umumlashtirib, o'z yo'lining uslubini topadi. Rassom xar doim sofdil bo'lib, haqiqatni ifodalashi kerak. Rassom o'zining falsafiy dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, bilim saviyasi, xarakatchanligi, ijodiy asarda foydalangan shaxsiy tasvir usuli bilan ajralib turadi. Shuning uchun xar bir asarni qaysi musavvir qalamiga mansubligini bilish qiyin emas. Misol sifatida I.Repin, V.Surikov, P.Benkov va R. Axmedovlarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Ular usuli bilan bir-birlaridan farq qiladi. Badiiy asar yaratish bu ma'naviy hayotni yahshi bilgan holda xis-tuyg'ularni chuqr ifoda etish, hamda ilhom, mehnat, kasb mahoratining natijasidir. Badiiy asar yaratish jarayoni xar bir ijodkorda o'ziga xos, uning jarayoni turlicha kechadi va rang-barang usulda bajariladi. Ko'pchilik tajriba hayotni tabiatni, atrof-muhitni kuzatish, asosiy omillarni ifodalash, eskizlar asosida tugap eskiz nushasini yaratish ijodiy izlanish jarayonini tashkil etadi.

Badiiy asar nayurmort, portret, manzara, yohud maishiy janrda bo'lmasin u kompozitsiya qonuniyati bilan, chuqr xis qilgan holda, dastlab qalamda eskiz echimini yaratishni talab etadi. Shu bilan birga ijodkor (eskizni oq-qora, och-to'q) tus rang munosabatlarini, kartinani mayda detallarini his qilgan holda bajaradi. Ijodkor kundalik hayot va o'tmishda sodir bo'ladijan voqealarni kuzatib, uning ijobiy, salbiy tomonlarini tahlil etishi lozim. Bir badiiy asar ijodkor uchun yangi tarixiy janrda asar yaratish uchun turtki bo'lgan bo'lsa, ikkinchi o'tmish taasurotlarini, ma'naviy hayotni yaxshi anglagan holda fikrlash, tasavvur etish, ijodiy mahoratni ishga solishdir.

Pedagogika universitetlarining badiiy-grafika fakultetlarida kompozitsiya fanini o'rganish talabalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishi bilan birga o'qituvchilik faoliyatini shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kompozitsiya, san'atning xamma turlarini negizida mavjud: adabiyot, teatr-kino, musiqa, tasviriy va amaliy san'at, arxitektura va xokazo.

Kompozitsiya o'quv predmet sifatida, qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb-hunarлari o'quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika universitetlarining badiiy-grafika fakultetlariga kompozitsiya fani talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya qonun, qoidalarini, haqiqatni to'g'ri shaklda ifodalash usullarini o'rgatadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qalamtasvir, soya-yorug', rang, havo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi.

Kompozitsiya kursi talabalarni mustaqil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yurgashida katta ahamiyatga egadir.

Kompozitsiya fani suhbat, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan iborat. Kompozitsiyani asosiy qonun, qoidalari, usul va vositalari, talabalar tomonidan amaliy mashg'ulot va suhbatlar jarayonida mukammal o'rganiladi.

Kompozitsiya - o'quv predmet sifatida, haykaltaroshlik, me'morchilik, grafika, qalamtasvir, rangtasvir, san'at tarixi kabi mutaxassis fanlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Qalamtasvir va rang tasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojaat qiladi, uning qonun-qoidalalarini bilmay turib kompozitsiya, qalam tasvir, rangtasvir mohiyatini tushunib etmaydi.

Ushbu kompozitsiya o'quv qo'llanma predmetining mohiyati, uning tasviriy san'atda rifojlanish tarixi, badiiy ijodning asosiy qonun qoidalari, vositalari va ularni pedagogika universitetlarining Badiiy-grafik fakultetlarida o'qitish metodlari haqida tavsiyalar tushunchalar beradi. Shuning uchun rassom-o'qituvchilarni tayyorlashda kompozitsiya fanining eng murakkab va muhim fan sifatida o'rganish tavsiya etiladi.

### **KOMPOZITSIYA TARIXINI RIVOJLANTIRISHIGA QISQA IZOH**

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatni ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlagan.

Lekin ibtidoiy davr odamlari hayotni zehn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Bunday holatni odam gavdasi va hayvon podalarini tartibsiz alohida tasvirida ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davridan alohida farq qiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatining (marosimlari) qonunlariga bo'yundirilgan.

Qadimgi misr san'atida kompozitsiyani dastlabki yangi usullari paydo bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hayotni ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirga chizgi, o'lcham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarni tuzilishida, yil faslini ketma-ket kelishida simmetriya va ritm tushunchalarini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relief, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyadan unumli foydalanganlar. Uyg'onish davrigacha kompozitsiya faniga bag'ishlangan biror bir nazariy qo'llanma yaratmagan.

Uyg'onish davri renessans insoniyatga ulug' san'at allomalarini etkazib berdi. O'sha davr rassomlari estalik kundalik, ilmiy maqolalarida kompozitsiya haqida qimmatli fikr, xulosalarni yozib qoldirdilar.

Erta uyg'onish davrining vakillari Djotto va Mazachcho o'z ijodlarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya qonunlarini amalda qo'llab, kompozitsiya fanining bilimdoni ekanliklarini misolda ko'rsatdilar. Yuqori uyg'onish davri rassomlari san'atning hil xil turlarini bir-biri bilan bog'lab, uning nazariyasini ilmiy asoslagan holda rivojlantirdilar.

Ular perspektiva yordamida kartinada chuqurlik, masofani tasvirini haqqonoy namoyon etishga erishishdi.

Ko'p yillik kuzatuv va analiz natijasida ko'zga ko'ringan rassomlarning asarlarini g'oya tuzilishi, rang echimidagi uslub, amaliy tajribalarini umumlashtirib Alberti "Rang tasvir haqida uch kitob" ilmiy nazariy meros yozib qoldirdi.

Leonardo da Vinchi va Alberti o'z maqolalarida badiiy asarlarida statik (harakatsiz) va dinamikaga (harakat) alohida ahamiyat bergen edi.

Frantsuz rassomi E. Delakrua o'z ilmiy maqolalarida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, P. Rubenslarni kompozitsiyaga oid traktlarini kengaytirib chuqr ma'nolar baqishlab davom ettirdi.

Osmon yulduzlarini shu'lasi ta'sirida inson jismiga Olloxdan in'om etilgan go'zallik va qobiliyatni o'ziga mujassam etgan allomalarini er yuziga kelishini insoniyat bir necha bor guvohi bo'lgan qobiliyatni Leonardo da Vinchi go'zal qiyofasida har qanday mushukul ishlarni osonlik bilan uddasidan chiqadigan odil inson shaklida ko'ramiz.

Vinch shahridagi janob Peroning o'g'li Leonardo, shunday ilohiy kuch-qudratga ega ediki, u bir necha oylab, matematika bilan shug'ullanar, lirada musiqa chalar qo'shiq aytib malakasini oshirardi. Shunday bo'lsada asosiy qiziqishi bo'lgan rasm chizish va haykaltaroshlikni tashlamadi.

Xudo bergen betakror aql-zakovatli, xotirasi kuchli buyuk alloma chizgan tasviri bilan insonni hayratga solar, fikr-mulohaza kuchi bilan lol qoldiradi. U Milan shahrida Dominikanlik aka-ukalar uchun "Mahfiy kecha" nomli go'zal asar yaratdi. Avliyolarni chehrasiga qusn qo'shib, ulug'vor qilib tasvirladi. Faqat Isusni yuz qiyofasini tasvirlashda ilohiy qudrati etmaydi, chala qoldirgan va umrini oxirigacha bitira olmagan edi. Leonardo odam anatomiyasini Galena ta'limotiga asoslangan chuqr o'rgandi, murdalarning suyak muskunllarini pero va qizil qalamda sinchiklab chiza boshladi va odam anatomiysi tasvirlari kitobini yaratdi. Otlarning suyaklari anatomiysi kitobini ham yaratgan. Bu anatomiyaga oid chizgilarining ko'p qismi Leanardonning avtoportretlari bilan bir qatorda bizlargacha etib kelgan.

Leonardo Franchesko del Djokondo uchun uning xotini Liza portretini 4 yil mobaynida ishladi, ammo shunday bo'lsada portretni oxiriga etkazaolmadidi.

Portretda ayolning hamma go'z xislat, fazilatlari, yarqiragan nam ko'zlari kipriklarigacha jonli odam nigohi ko'rinishida qilib tasvirlagan.

Tasviriy san'atda bunday toj asarlarning mavjudligini dunyoda eng qobiliyatli, zehnli olim, alomma musavvir qalamiga mansub bo'lishi xaligacha insonlarni beihtiyor hayratga soladi. XVI asr oxirida o'quv fani sifatida shakllana boshladi. Buni V.Neleng, S. Vasilev kabi metodistlarning Frantsiya safaridan so'ng o'qitish sistemasi haqidagi qisobotlari orqali bilish mumkin. 1882 yili taniqli pedagog - rassom Violie Le Dyukani "Tarixchini tarixi" kitobi rus tiliga tarjima qilgan edi. Bu kitob shaxsiy ish tajribasidan kelib chiqib, tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan suhbat tarzida berilgan. Bu kitobni "Sochinenie" qismida, frantaziya, perspektiva ma'lum qonunlarga tanishishni o'qtirib o'tilgan. Tasviriy san'atda kompozitsiya masalalari haqida dastlabki metodik bayonnomma muallifi amerikalik pedagog-rassom A. Doudir. Bu o'quv qo'llanmada tasvirda har xil shakl, tuslarni qog'oz va matoga to'g'ri joylashtirish, qog'oz hajmi va formatiga alohida ahamiyat bergen. Tasviriy san'atda yangi impressionizm oqimining paydo bo'lishi – rangtasvirda yangilanishga vosita bo'ldi, san'atni oldinga rivojlanishiga turki vazifasini o'tadi. Impressionistlar rang politrasini boyitdi. XX asr boshlarida g'arbiy Evropa davlatlarida va Rossiyada har-xil badiiy oqimlar paydo bo'lsa boshladi: futurizm, kubizm, ekspressionizm, dadaizm, syurealizmlar shular jumlasidandir.

Tartibsiz mulohaza, qarama-qarshi fikrlarni kurashi tasviriy san'at va kompozitsiyani o'qitish metodikasiga chalkashlik va tartibsizlik olib kirdi. XX asrning birinchi chorasida tasviriy san'at g'arbiy Evropa va Amerikada berk ko'chaga kirib qolgan edi.

Shu bilan birga ko'p san'at maktablarida rassomlar realistik san'at yo'lida kompozitsiya nazariyasini o'rganishni davom ettirdilar. Rossiya tasviriy san'atida XVIII asrgacha ikona rangtasviri taraqqiy etgan edi. Eng qobiliyatli russ ikonachi rassomlardan biri Andrey Rublev edi. Uning mashhur "Troitsa" si ikona janridagi qadimgi klassik kompozitsiya namunalaridan biri xisoblanadi. Kompozitsiyada bu rassom gavda holatining aniq tasviri, rang garmoniyasi va ahlitligiga erishdi.

XVIII asr Rus tasviriy san'atida, realistik badiiy maktabning asoschilari A.P.Losenko, G.I. Ugryumovlar hisoblanadilar.

Rossiyada Peterburg Badiiy akademiyasini bitirgan A.Ivanov, A. Egorov, V.Shebuev, A. Venetsianov, K. Bryulovlar o'z ijodiy va pedagogik faoliyatlarida kompozitsiya muammolariga ko'proq ahamiyat berib, tasviriy san'atni yangi pog'onaga ko'tardilar.

1757 yili tashkil topgan Peterburg Badiiy akademiyasida mutaxasislik fanlarini o'qitishni muntazam tarzda yo'lga qo'yilishi, Rossiya ta'sviriy san'atini rivojlanishini o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mashxur rassom va pedagog A.P.Losenko o'z faoliyatida ijodiy yondoshib kompozitsiya masalalari ustida ishladi.U hamma tasviriy vositalar asar qoyasiga,mazmuniga qaratilgan bo'lishini ta'qidladi.

Losenko o'z vaqtida akademik ta'lim metodini yangilashni angladi va yangi uslub-metodikasini ishlab chiqdi. Chunki Bolon maktabi tizimida bo'lib, birinchi navbatchi ulug' rassomlarga tahlid qilinar edi.Uning yaratgan Akademiya o'qitish nazariyasi XIXasr o'rtalarigacha davom etdi.Losenko davridayoq Rossiya Badiiy Akademiyasi dovriqi va obro'yi dunyoga tarqaldi.

A.P.Losenko yuqori saviyali kompozitsiya ustasi edi.Buni «Vladimir pered Rognedoy» kartinası misolida ko'rish mumkin. Losenko dars bergen tarixiy janr klassida kartina tuzilishi masalalariga ko'p e'tibor berilar edi.

P.I.Sokolov,G.I.Ugryumov,O.A.Kiprenskiy,K.P.Bryulov kabi ulug' rassom pedagoglar A.P.Losenko o'qib ta'lim oldilar.

Losenko boshlagan ishni Akademiyadagi pedagogik faoliyatini G.I.Kozlov,P.I.Sokolov (1782 y)kabilar davom ettirdilar.

Ayniqsa Ugryumov, Losenko boshlagan tarixiy janr klassida kompozitsiyani davom ettirdi, kompozitsiya nazariyasini mukammallashtirgandi.

Uning o'quvchilaridan A.Ivanov, A.Egorov, V.Shebuevlar ham ustozning uslublarini davom ettirdilar.

Shunday qilib rassom-pedagog va metodistlar XVIII va XIX asr boshlarida tasviriy san'at va kompozitsiyani o'quv predmet sifatida rus badiiy mакtabda o'qitilishni mumkinligini isbotladilar. Bu yo'nalish rangtasvir kompozitsiyasi ustasi K.Bryullov tomonidan qo'llab quvvatlandi.

K.Bryullov o'zining pedagogik va ijodiy faoliyatida gavdaning plastik tuzilishiga, asarda kompozitsiya muvozanatini haqqonoy tasvirlashga ahamiyat berdi.

«Pompeyning oxirgi kuni» asari bunga yorqin misol bo'la oladi.Asarda insonni hayotda sodir bo'ladigan xavfli, fojiali dramatik daqiqalardagi holati, tabiatda chaqmoq natijasidagi kuchli yoruq nurlari ostida bo'layotgan ta'sirchan voqeа kontrast ranglarda tasvirlangan.

Odamlar ko'zidagi qo'rqinch, ularning go'zal nigohi xatti harakatlari, shijoatli onalar badiiy yuksak mahorat bilan, yuqori darajada jozibali tasavvur etilgan. Bryullov bu asarida badiiy Akademianing yuksak an'analarini davom ettirdi.

XIX asrning ikkinchi yarimida ilg'or ma'rifatli rus rassomlari tashqi dunyoni hayotda to'g'ri tasvirlash uchun kurash olib bordilar. Realistik san'atning rivojlanishiga I.N. Kramskoy boshliq sayyor rassomlar katta ta'sir ko'rsatdilar.

Asosan xalq manfaatini ko'zlab, xayotdagi muqim voqealarni ko'zatib, ijod qildilar, asarni g'oyasiga ahamiyat berdilar. Ko'plab Rus rassomlarining ustozи P.P.Chistyankov mutaxassislik fanlari o'qitishning yangi tizimini yaratdi.

Realistik san'atning buyuk namoyondasi I.E. Repin kompozitsiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muhim xissa qo'shdi. Shuningdek tarixiy janrda har tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V. Surikov rus rassomlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. U kompozitsiya eskizini bajarishga alohida ahamiyat berdi. O'ylagan mavzu rassom tasavvurida tiklansa u darrov qo'liga qalam, ko'mir, mo'yqalam olib eskiz bajarishga kirishardi. Ayniqsa "Boyarina Morozova" kartinasiga uchun, o'nlab, yuzlab qalamlavqa, eskizlar bajargan. U mavzuga oid bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni sinchiklab o'rganardi. XIX asr oxiri XX asr oxiri boshlarida Rossiya san'atida va o'qitish tizimida ilg'or –progressiv yo'nalish bilan bir qatorda reaktsion kuchlar ta'sirida, burjua falsafasiga tahlid qilgan yangilik - "Novizna" oqimi paydo bo'la boshladi.

Maishiy janrdagi kartina mazmuni, kompozitsiyaning badiiy yuksak yaxlitligi asta – sekin o'z kuchini yo'qota bordi.

Buyuk pedagog rassom D.N. Kardovskiy bularga qarshi murosasiz kurash olib bordi va realizm pozitsiyasida turib himoya qildi.

D. Kardovskiy ham P. Chistyakov kabi tasviriy san'atdagi ardoqli pedagog-rassomlardan edi.

V. Efanov, D. Shmarinov kabi ko'plab Rossiya rassomlari uning ustaxonasida yaxshi ta'lim oldilar.

Ko'p yillik pedagoglik faoliyati mobaynida qalamtasvir va kompozitsiyadan mukammal o'quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya qayot qodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bo'lib talabalardan ma'lum farmatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o'tish printsiplarini qo'ydi. Keyinchalik kompozitsiyani nazariyasi, amaliyoti va ularni o'qitish metodikasini asosiy printsiplarini ishlab chiqishda,

V. Favorskiy, A. Deyneka, K.Yuon, E.Kibrik, A.Alpatov, G.Nisskiy, F. Reshetnikov, D. Shmarinov kabi uluq rus rassomlari o'z xissalarini ko'shdilar.

Bularning ichida K.Yuon, A.Deyneka, E.Kibrik, M.Alpatovlarning to'ldirilgan ijodi va ilmiy nazariyasi tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rini.

Kompozitsiya nazariy asoslarni rivojlantirishda salmoqli xissa ko'shgan rassomlardan yana biri Konstantin Yuondir.

Uluq rassomlarni asarlari misolida kompozitsiya tuzilishini taxlil qilib: kontrast, vertikal, gorizontal, diogonal simmetriya, assimetriya, aylana, uchburchak, muvozanat, ritm yaxlitlik, dinamik, statik xolat, yoruq, rang koloriti,

qurish nuqtasi, gorizont, kompozitsiya plani, maxobatlilik, dekorativlik\_ kabi tasvir uslublarini ko'rsatib berdi. K.Yuon kompozitsiyani uqitish metodikasi saviyasini yuqori darajaga qo'yish kerak deb qisoblardi.

qar xil mavzudagi kompozitsiya eskizini bajarish jarayonida xomaki tasvir, yoruq va ranglarni qar xil xolatida perspektiva qoidalarini ishlata bilishni tavsiya qilardi. qo'shimcha qayot ta'surotlarini, gavdani turli xolati, gurux. odamlarni harakatdagi ko'rinishi, tipaj, liboslar, xona bino burchaklaridan chizqilar chizib, ulardan unumli foydalanishni tavsiya etardi.

Kompozitsiya masalalaridan takomillishtirishga munosib xissa qo'shgan buyuk rassomlardan biri E. Kibrikdir. U o'z asarlari bilan grafika san'atini yuqori cho'qqilariga olib chiqqan san'at ustalaridan biridir.

U o'zining «Kompozitsiya masalalariga doir» (1961y) kitobida kompozitsiyani tasviriy san'atdagi ob'ektiv qonunlarini, kompozitsiyani o'qitish soxasidagi metodik qo'llanmadagi kamchiliklarni o'qtirib o'tdi.

Kompozitsiya qonun-qoidalarini chuqur bilish, qobiliyatli ijodkor ongiga sayqal beradi. Etuk rassomlarning ijodiy tajribasiga va kompozitsiyani o'qitish uslubiyatiga asoslanib Badiiy Akademiya tomonidan 1960-64 yillari nashr etilgan 8 jildli «Shkola izobrazitelnogo iskusstva» nomli metodik qo'llanma tasviriy san'at manbaini boyitdi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyani rivojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasida mavjud fanga tegishli ma'lumotlarni tartibli ravishda o'rganib, kompozitsiya nazariyasi haqida xulosaga ega bo'ldik.

## **KOMPOZITSIYANING ASOSIY QONUNLARI**

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir sana'ti ustalarini merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o'rganadi.

Amaliyotda kompozitsyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalarini mazmuni va qoyaga bo'yсинish kompozitsiyani asosiy qonunlari deb qisoblanadi.

Bu qonunning belgilari E.Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan, kompozitsiyada birinchi yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rindi.

Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, qajm, «pyatno», oraliq xarakter nusxa, imo - ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida Repinning «Krestno'y xod v Kurskoy gubernii» kartinasini bir qarashda yaxlit «pyatno» shaklida ko'rindi.

Kompozitsiyadagi omma - xaloyiq, tasviri diogonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini boqlab turadi. Niqoyatda ko'p sonli qaloyik, jamoa

tasvirlangan bo'lsada, qar bir kishi xarakteri, nusxasi salbiy, ijobiy obrazlar, sinfiy qarama - qarshiliklar, xullasi rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

qaqiqat qonuni - asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeani vaziyatning o'ziga xosligi. A. Savrasovning «Kora qarqalar uchib keldilar», I. Levitaning «Oltin kuz», A. Kuindjining «qayinzorda», A.Ro'lovnning «qavo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga rus tabiatini o'ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonuning ikkinchi belgisi - bu sodir bo'layotgan voqeal mavzuini, harakat holatini vaqtini tasvirlaydi.

Tasviriy san'at teatr, kinomotografiyaga nisbatan bir umrga tasvirlaydi. Ayniqsa ko'p figurali kompozitsiya mavzudagi personajlarni qar xil xolatda aks ettirilgan I. Repinning «Nejdali» asarida tomoshabin faqat personajlarni tasvirlangan holatini zmas, balki ular xibisdan qaytgan erini tasodif ko'rishdan oldin nima ish bilan band qanday qolatda ekanligini tasavvur qiladilar. qari onasi royal chalishni to'xtatib, kresloni chetga surib, o'qlini qarshi olishga o'girildi.

Keyinchalik kutilmagan uchrashuv. Natijada qalbni to'lqinlantirib ko'zlari quvonch yoshlariga to'la qolatga aylanadi. Bu erda bo'layotgan kulminatsion daqiqa qayotiy voqeani mavzu bilan boqlovchi harakatdagi vositadir. Yu. Pimenev «Yangi Moskva», «Ertangi ko'chalarda to'y» asarida ko'z oldimizda o'zgarayotgan harakatdagi zamonaviy shaqar qayotini ko'rsatgan. To'y marosimini yo'nalishida keljak qayotga shaxdam qadam tashlayotgan xalqlarning holatidir. Tipizatsiya qonuning uchinchi belgisi bu - yangilikdir.

Realistik san'at qaqqatni to'g'ri ifoda etib qolmay, rassom xis tuyqularini, estetik go'zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya echimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Estetik kashfiyotlarni Mikelanjelo, Titsian, Rembrantning o'lmas asarlarida, A. Deyneka, A. Plastov, K.Yuon asarlarida kompozitsiya tuzilishini badiiy vositalaridan mavzuda yangilik tushunchasini ko'ramiz. «Novizna» - yangilik oqimini biz A. Kuindjining «qayinzorlar», V.Polenovning «Moskvadagi qovli», manzarasida ko'ramiz.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunudir. Leonardo da Vinci «Rangtasvir haqida trakt» ilmiy asarida o'lcham qarama - qarshiliqi haqida, katta — kichik, past - baland, yupqa - qalin, xarakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozadi. Mikelanjelo tekislikdagi xajm kontrastlariga ko'p ahamiyat beradi. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yoruq kontrastik orqali sezadi va o'z ongiga singdiradi.

Portret janrida rassomlar qadimdan «ton kontrasti»dan foydalanib, yoruq figurani tasvirlashda to'q fondan foydalanganlar. XIX asarda san'at ustalari portretni yorug fonda tasvirlay boshladilar. V. Serovning «Shaftolilik qiz» portretida, yuzi to'q, tusdagi qiz, engil yoruq deraza fonida tasvirlangan.

Rangtasvirda kontrast qarama - qarshi issiq, va sovuq ranglar mavjud. qarama - qarshi ranglar bir - biriga yonma -yon tursa, ranglar kuchi ko'payadi: qizil - yashil, ko'k -zarqaldoq, oq, - qora va qakozo.

Kompozitsiyaning tuzilishida «Psixologik kontrastlar» ham mavjud. Iogansonning «Eski Ural zavodida» kartinasida erga egilib o'tirgan ishchini yangi qimmatbaqo libosda turib, sinchiklab kuzatayotgan fabrika egasiga qarama - qarshilik qonuni kuchli tasvirlab berilgan.

### **KOMPOZITSIYANING QOIDA, USUL VA VOSITALARI**

San'at asarlarini taxlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o'z moqiyatini asta - sekin yo'qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo'la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya kilishadi. qar bir ijtimoiy - jamiyat san'at oldida yangi zamонави vazifalarni ko'ndalang ko'yadi.

qozirgi vaqtida biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruqga ajratamiz. 1. Kompozitsiya qonunlari. 2. Kompozitsiya qoida va usullari.

### **KOMPOZITSIYA USUL (YO'LLARI)**

Kompozitsiyani asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimmetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish.

Ritm qayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir u bir elementni oraliqda galma-gal qaytarilishidir. Asar qoyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

### **KOMPOZITSIYA USULLARI**

Uzoq kenglikni ochiq manzarada gorizontal xolatda tasvirlansa, kenglik bepoyon, katta bo'lib tuyuladi.

V. Meshkovning «Ural haqida uylar» manzarasi juda gorizontal uzun formatda joylashtirib tasvirlangan.

Ko'p planli manzarani orqasida o'rmonzor tasvirlangan. Oldingi va orqa plandagi kontrast yorqin ranglar, engil ufq; chiziqi masofani, bepoyon kenglikni aks ettiradi. Kompozitsiyani gorizontal usulda ifodalashda tinch, osoyishtalik holatini sezamiz.

Kompozitsiyani parallel, vertikal yo'nalishda bo'lishi tantanali uluqvor, ko'tarinki rux holatini anglatadi. Bunga L. Abdullaevanining «qo'riq. er ochuvchilar», kartinasni misol bo'lishi mumkin. Diogonal yo'nalishi esa

harakat holatini kuchayishi yoki susayishini ko'rsatadi. V. Surikovning «Boyarina Morozova» kartinasida chananing harakatdagi yo'nalishi, chopib borayotgan bola, qayajon bilan kuzatib turgan turli libosdagi qaloyiq, - omma pastki o'ng burchakdan, yuqori -chaptburchakka dioganal yo'nalishida tasvirlangan.

Asarda xarakat yo'nalishini o'ngdan chagpa susaygan holati masofani chuqurligini ifodalashga imkoniyat beradi.

### **KOMPOZITSION VOSITALAR**

Chiziq, shtrix, rangli va tusli dog (surtma) chizma perspektiva, soya - yoruq, rang, qavoli va rangli perspektivalar kompozitsiyaning vositalaridir.

Chiziqlni esa tasviriy san'atning asosiy vositalaridan biri deyish mumkin. Undan uzoq, muddatli, qisqa muddatli chiziqlar bilan kompozitsiya eskizlarida foydalilaniladi. Rassom qog'oz tekisligida predmet shaklini ochroq, to'qroq, chiziqlar orqali ifodalashi mumkin.

Kompozitsiyani amalda dastlab chiziq, tasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrix chiziqlarni qalinligi orqali predmetlarni soya, yoruq joylariga shakl berib, chuqurlik, masofani ifodalashga beradi.

Rang va tusli doq kompozitsiya mashqulotida muqim rol uynaydi. Asarda plastik qajm, chiziqli, qavoyi, rangli perspektivalarni roli kattadir.

Biz bu kompozitsiyaning asosiy vositalarni qayd qilib o'tdik.

Kompozitsiya kursini asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san'atni idrok etishni va taxlil qilishni, qayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy-pedagogik faoliyaiga tadbiq qilishdir.

Kompozitsiya amaliy hamda nazariy qismdan iborat.

Nazariy ma'ruzalar auditoriyadagi amaliy mashqulotlarni, uy vazifalarini ongli ravishda bajarishni idrok etadi. Kirish qismida kompozitsiyaning asosiy qonun - qoidalari, usul va vositalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'atni janr turlaridagi kompozitsiyani o'ziga xos muammolarini, san'at asarida mavjud qonun talablarini ifodalaydi.

Kompozitsiya nazariyasidagi bilimlarni chuqr o'zlashtirishda, maxsus seminarlarni roli katta. Bulardan tashqari talabalarni mavzular asosida referat yozib ma'ruzalar bilan chiqishlari, ularni muqokama qilish yaxshi natija beradi.

Amaliy qismida asosiy maqsad talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllanishiga, qayotni kuzatish, uni tasviriy vositalar bilan aks ettirish, bosqichma - bosqich eskizini oxirigacha etkazishdan iboratdir.

Amaliy mashqulotlarda kompozitsiya eskizini mazmun qoyasini maqsad va vazifalarini ongli ravishda idrok etish muqimdir.

Bajarilgan amaliy vazifalarni kamchilik va sabablarini muqokama qilib tushuntirib ijodiy fikrlashni shakllantirish lozim.

San'at muzeylari, badiiy ko'rgazma zallariga, ekskursiya, etuk rassomlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular bilan suqbatlar o'tkazish, talabalarda badiiy ongni boyitadi.

Berilgan mavzu buyicha eng «yaxshi kompozitsiya eskizi uchun» talabalar o'rtasida konkurs e'lon qilib yaxshi eskizlardan ko'rgazmalar tashkil qilishi, qoliblarni raqbatlantirish ijodiy samara beradi.

Tasviriy san'at tushunchasiga nafis san'at, grafika haykaltaroshlik va amaliy san'at kiradi.

Bu yuqorida sanab o'tilgan tasviriy san'at turlarining qar biri ijodkor tanlagan voqeylekni, mavzuni o'ziga xos vositalarda, badiiy tilda tasvirlaydi. Bu san'at turlari ichida eng keng tarqalgani nafis tasvir san'atidir.

Nafis tasviriy san'at - tasviriy san'atning bir turidir. Rassom buyoqlar va maxsus usullar yordamida jisimni predmetni xajmni tasvirlaydi.

Nafis tasviriy san'at beshta elementlardan iboratdir. Bu elemntlar buyum shaklini, rangini tushayotgan yoruqni, yasalgan materialini, tasvirlanayotgan predmetni qanday sharoitda va muqitda ekanini tasvirlashda namoyon bo'ladi.

Tasviriy sana'tda bir necha janrlar mavjud: tarixiy, jang manzaralarini aks ettiruvchi janr, maishiy janr, portret, manzara, natryumort, inter'erdir. qar qanday san'at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. Natryumort tuzish bu ijodiy jarayon. Unda rassomning didi, layoqati kompozitsiya madaniyati, bilim saviyasi namoyon bo'ladi.

Natyumort (luqaviy ma'nosi-jonsiz tabiat) haqida gapirganda, odatda, sabzavot — mevalar, gullar, otilgan ilvasinlar, (mulyaj) uy ruzqor buyumlarni tasvirni ko'zda tutadilar.

Lekin natyurmortda jonsiz tabiat tasvirlanganiga qaramay, matoda jonli qayot nafasini sezamiz. Natyumort kompozitsiyasini ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi bir - biriga munosib va mos narsalar tabiiy boqlanishda qo'yilishi kerak. qo'yilgan natyurmort kishida qiziqish va rasm chizishga qavas qissini uyqotadigan bo'lishi va albatta kompozitsiya talablariga javob beradigan bo'lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, hajmi, materiali, sirtqi (fakturasi) rang va och - to'qligi (tus) bilan bir - biridan farq qilishi kerak.

Masalan, katta chelak yoniga ko'yilgan gugurt qutichasini ko'z ilgamaydi, chunki ular o'rtasida uzviy boqlanish sezilmaydi. Tanlab olingan narsalarni predmet tekisligida bir - biriga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortni qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi.

Sharden, Surbaran, Kalf, Snayders K.Korovin, I. Mashkov, P. Konchalovskiy va boshqa natyurmort nafis rassomlar asarlarida qayotiy xaqiqatni, matoda jonlangan tabiatni ko'ramiz.

Shardenning «piyozli natryumorti» da stol ustidagi ko'k piyozni cho'ziq shakli qiziq tirib, surat kompozitsiyasini cho'ziq, bo'lishiga sabab bo'lган bo'lishi mumkin.

Shakli jiqatdan unga zid narsalar izlab, Sharden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro'zqorda zarur bo'lган buyumlarni, mis, qog'oz, sopol va shisha idishlarni tanlagan.

Rassom ataylab shakli o'lchami, materiali bir-biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatni o'ziga xos, narsalarning rang-barang va turlitumanligi qiyos qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jaqatidan juda, sodda ko'rindi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechasini olgan xalos, Mazmunan bir-biriga monand narsalardan tanlab olganidan keyin, ulardan shunday bir yaxlit gurux, tashkil qilish kerakki, u kishida qiziqish uyqotsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta uning tasvirini yaratish ishtiyoyqini qosil qilsin.

Sharden natryumort tuzish tanlagan narsalar-mis qozon, sopol chumich, yashil ragli shisha idish, ko'k piyoz boshlari , ikkita olma va ikkita tuxumdan iborat.

Bular hammasi oshxona ashylari bo'lib, shakllari, tuzilishlari, sirtlari va ranglari qar xil.

Bular ulkan mo'yqalam soqibining yuksak talanti, tabiatning beqiyos boyligini ko'ra olishi va to'g'ri idrok qilishini natijasidir.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uni tabiiyligidir. Shuning uchun natyumort tuzish, uni o'rnatish, vaqtida yaxlitlikka e'tibor berib, niqoyasiga etkazishga harakat qilish lozim.

Buning uchun esa klassik namunalarni ko'plab taxlil qilib, u yoki bu asar insonga nima uchun shunchalik ta'sir etadi, zavqini keltiradi, degan savollarga javob izlash foydalidir. Natyurmortning manzara yoki intererga nisbatan afzalligi yana shundaki, uni qo'yib olgandan keyin bir necha kun joyidan ko'zqatmasdan qar xil qarash nuqtalaridan qayta-qayta tasvirlash mumkin bo'ladi.

Natyurmortning atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi ataylab tuzadi, tafakkuri bilan barpo etadi.

O'quv natryumortning kompozitsiyasi bir tomondan estetik talablariga, ikkinchi tomondan ta'limning didaktik talablariga javob berish kerak.

Natryumort qo'yilmasi puxta va uzoq, vaqt o'ylab, muloxaza qilib tashkil etiladi. Unga ko'p narsa kirtilmasada predmetlarning shakl va ranglari qar xil bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Silliq yaltiroq sirtli idishni, sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni dumaloq shakl bilan yonma - yon qo'yilsa, ularni takqoslash va sinchiklab o'rganish uchun imkoniyat tuqiladi.

Natyurmortni asosiy talablaridan biri o'lcham, rang va ton jiqtidan ajralib turishi, hamda surat teksligining markazita yaqin joyga qo'yabilishdir.

Bu surat mazmunini ochishda, so'zboshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rttirib ko'rsatib beradi. Ko'pincha rassomlar asosiy predmaetni ataylab geometrik markazdan sal siljitiq qo'yadilarda muvozanatni

saqlash uchun qarama - qarshi tomonda rang va och to'qligi unga zid bo'lgan peredmet oladilar.

Atokli natryumortnafislar Sezan, Sharen, Xrutsskiylar bu usuldan unumli foydalanganlar.

Natyurmort janrida O'zbekistonlik rassomlardan V.Ufimtsev, S. Kolibanov, Yu. Elizarov, R. Axmedov kabilar o'z asarlarida tabiatni beqiyos boyligini milliy ruxda jozibali tarannum etdilar.

O'kuv Natyurmortining muqim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir. qo'yilmaga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqda, maydalari oldinrokda, biri ikkinchisining va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi.

Natyurmortdagи narsalarni mazmunan bir - biriga boqlash maqsadida unga cho'ziqroq shaklidagi narsa kiritiladi.

Surat teksligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan pichoq, qoshiq, qog'oz o'rami, mo'yqalam va qokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan «kalit» bo'lib, tomoshabin nigoqini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda unga katta bo'limgan, ammo yorqin narsa qo'yiladi.

Natyurmortning ufq chiziqiga nisbatan qanday joylashishi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z balandligidan pastrokda qo'yilgan natyurmort yotiқ predmet teksligida to'la-to'kis ko'riniб turadi, narsalarning

asoslari, ularning o'zaro joylashishi yaqqol ko'rindi va tasvirlashda qulay bo'ladi. Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'laroq olib berish uchun yoruqlik nurlari peshonadan old tomonidan yoki yondan tushadigan bo'lishi kerak. Tabiiy yoruqlikning kuchi etarli bo'lmasa, natyurmortning yon tomoniga sun'iy yoritgich ko'yiladi. Shunda oldingi narsalarda yoruq soya kontrasti keskin bo'lib, ularning xajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirtlari, yaqqol ko'rindi. Ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalardagi qarama - qarshilik yana ham mayinlashadi, ularning chegaralari foning to'q joylari bilan umumlashtirib ko'rindi. Lekin natyurmort bo'yoqlarda tasvirlanadigan bo'lsa, uni deraza yaqiniga kunduzgi tabiiy nurlar ostida va biroz yonboshdan yoruqlik tushadigan qilib qo'yilgani ma'qul.

Vazifa natryumortdagи narsalarning asl (lokal) ranglarini aniqlashdan iborat bo'lganda, u deraza ro'parasidagi devor yoniga qo'yiladi. Bunda natyurmortga nurlar old tomonidan tushadi, soya va reflekslar unchalik ko'p bo'lmaydi va predmetlarning o'z rangi yaqqol, ochiq - oydin ko'rindi.

Avvaliga fon uchun tanlanadigan gazlamalar yaxlit, sidirqa va nursizroq bo'lgani ma'qul, chunki olachipor yorqin rangli gazlama ko'zga aniq, tashlanib, natyurmortning o'zini kurishga xalaqit beradi. Shuni ham qisobga olish kerakki oqish fonda qoramtilar narsalar, to'q fonda esa, aksincha oq narsalar ravshan ko'rindi. ^

Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar (drapirovka) kiritiladi.

Orqa fonga va predmet stoliga solinadigan gazlamaning (chit, surup, shoyi, baqmal, movut) xarakteriga mos holda mayda va yirik burmalar solib qo'yish mumkin.

Gazlama devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo'yilsa u pastga erkin osilib tushadi va tabiiy shakldagi burma qosil qiladi.

Yuqorida aytganimizdan ma'lum bo'ldiki, natyurmort postanovkasini qo'yish jiddiy va ma'suliyatli ishdir. Yaxshi qo'yilgan natyurmortda ortiqcha tasodifiy narsalar bo'lmaydi, uni old yoki yon tomonidagi qarash nuqtalaridan kuzatilganda, mazmunli yaxlit guruq bo'lib ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

O'quv natyurmortdan ijodiy natyurmortni farqi shundaki u qayotga yaqin bo'ladi. Odam ishtirokisiz ham ko'p ma'noni anglatadi.

Misol tariqasida V.Ufimtsevning «Garmon» (1945y)G. Abduraxmonovning «Samovarli natyurmorti»ni olamiz «Garmon» natyurmortida jangchining kundalik «poxod» anjomlari avtomat, maxorkali xalta, gazeta, mis kosacha, buyum to'rva va jangchining hamroqi,-garmon tasvirlangan. Bu natyurmort o'zida odam ishtirokini bildirib eslatib turadi.

«Samovarli natyurmort»da esa mavzu kompozitsiya tuzilishiga monand olingan Yorug milliy so'zana fonida qo'yilgan katta xajmdagi samovar va stol ustidagi laganda so'yilgan qovun -tarvuzlar, non, olma-anorlar hamda ularning tekislikda kompozitsiya jiqatidan badiiy ifodali joylashishi tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Meqmondo'st o'zbek xalqining insonlarga saxiyligi tushunchasi tabiat inomlari orqali o'z aksini topgan.

Shunday qilib, natyurmort tuzish uchun:

- A) mavzu tanlash;
- B) natyurmort mavzusiga mos keladigan jixozlar, predmetlar, gazlamalar topish;
- V)narsalarning shakli, tuzilishi, tusi va ranglarini qisobga olib joylashtirish;
- G) predmetlarning qajmdorligini yaqqol ko'rindigan tarzda yoritish - zarur ekan.

1907 yili P. Bure Buxoroda o'rta asr qattiq jazosini qo'llanishini guvoqi bo'lган. Keyinchalik naturadan bajarilgan etyud, chizqilar asosida «Eski buxoro zindoni», «Feodal Buxorodagi qatl» (1929) asarini yaratdi. quyosh qaroratida qizigan maydon o'rtasiga o'rnatilgan dor oldila yiqilgan xaloyiq maxbusni qatl etishga shaylangan jallodni qatti harakatlarini qazab

bilan kuzatayotgani tasvirlangan. Rassom surat kompozitsiyasini teatr saxnasidagi ko'rnishdek etnografik qolatda tuzgan.

Keyinchalik Samarqand arxitektura yodgorliklari turkumini yaratdi.

1918 yili Samarqantda, 1919 yild Tokentda Turkiston O'lka rasomchilik maktabi tashkil topdi, boshqa rassomlar qatorida A.Volkov yoshlarga daryo berdi. Samarqandda esa O. Tatevos'yan raqbarlik qiladi.

O. Tatevos'yan rassom sifatida 20 yillarda tanildi. U o'zini manzara, natyurmort, partret, maishiy janrlarda sinab ko'rdi va asarlarida sharqni o'zicha talqin qildi.

Keyinchalik u natyurmort ustasi professor sifatida tanildi va 1954-57 yillarda yosh rassomlarga dars berdi.

Rus demokrat rassomlardan I. Repinning shogirdi N.Rozanov 1924 yili san'at muzeyi qoshida birinchi bo'lib tasviriy studiyasini tashkil etdi. Bu milliy studiyada erli rassomlar X.Valiev, 3. Saidnosirova, A. Toshkentboev, U Tansiqboev va boshqalar birinchi bo'lib saboq olishdi.

N.Rozanov kabi I. Kazakov ham rus realistik san'atini asoslarini yoshlarga o'rgatdi.

Realistik san'at bilan bir qatorda Petrov -Vodkin, N. Kuznetsov, A Volkov kabi bir necha rassomlar formalistik yo'naliishga burilib ketdilar.

Bu yo'naliishni amalga oshirganlardan biri A.Volkovdir. Uning «Anorli choyxona», «Karvon», «Sandal oldidagi o'yinchi» kabi asari 1924 yili Toshkentda, Moskvada shaxsiy ko'rgazmada namoyish etildi.

Jamoatchilik tomonidan tanqidga uchragandan keyin realistik yo'naliish qaror topdi. Volkov «Anorli choyxona» asaridan keyin ijodida burilish yasadi.

U o'z esdaliklarida realizm yo'li inson obrazini yaratishda to'g'ri yo'lligini ta'kidladi.

Avtoportret, rafiqasi portreti, kolxozchi, paxta terimi, «qizil karvon», «Bayram» asarlarida realizm yo'li namoyon bo'ldi.

Aleksandr Volkov baqor marosimlari - sayl, lola terish, to'y, qosil bayramlarini quvonchli ranglarda ifodaladi.

Karvon asarida tuyani uchburchak shaklidagi ayol va bosh harakati arava qildiriaklarini qildirash tovushlari bilan boqlanib, bir rang spektri kompozitsiyasiga aylangan «Uchta so'zana» asarida shartli geometrik figura qizil, ko'k, oxra, sariq rangli shakllarni bir-birga tutashishi musiqa oqanglarini eslatadi.

Shu davrda portret va tarixiy - inqilobiy mavzuda O'.Tansiqboev, Usta Mo'min (Nikolaev), V.Ufimtsev, M.Arinin kabi rassomlar ijod qilishdi.

Keyinchalik 1960 yildan boshlab Urol Tansiqboev ijodida manzara janri gullab rivojlanadi.

U o'ziga xos usulda manzara kompozitsiya maktabini yaratdi. «Issiq ko'l», «Ona o'lka», «Tongda kuz» kabi ko'plab asarlari Tretyakov gallereyasi hamda O'zbekiston davlat san'at muzeyining oltin fonidan joy olgan.

Peterburg Badiiy akademiyasida ta'lim olgan P. P. Ben'kov 1928 yili birinchi marta O'zbekistonga keldi.

Bu o'lka o'zini betakror go'zalligi bilan uni o'ziga maftun etdi.

Shu vaqtda u Buxoroda bo'lib «Buxoro bozori», «Chor-minor maschiti», «Xovuz labidagi choyxona», «Uzum bozori». «Usti yopiq bozor» kabi manzaralarni yaratdi.

Rassom 1930 yili Xiva. Keyin Samarqandga keldi. Bu ajoyib o'lkan tabiatni, qayoti, odamlari yangi ijodga ilxomlantirdi. Tez orada u qozon shaqridan Samarqandga ko'chib kelib ijodini ikkinchi yangi bosqichini boshladi.

Rassom shaqar tor ko'chalarini kezib, machit-madrasalarga, xonadonlarga kirdi, bozordagi shovqin-suron, savdo-sotiq bilan band, ranglarga boy libosdagi odamlar xayotini erinmay soatlab kuzatdi. Ularni quyosh nurida toblangan chexralarini mashaqqatli meqnat evaziga etishtirilgan meva nozi-ne'matlarning rang-barangligi uni ko'zini hamashtirdi, yangi ijodga ilqom baqishladi.

Shunday qilib ilk bor «Xivali qiz» suratini yaratdi. Peshin payti, charoqon quyosh nuriga qarq cho'milgan Xiva xovlilarining birida o'smir qiz charx yigirib o'tiribdi.

Uning egnida guldar kuylak, boshida chiroyli do'ppisi. Ko'zlarini diqqat bilan boqishi, boshi sal egilganligi, qo'llarning harakati, uning berilib ishlayotganidan dalolat berib turibdi. Surat bo'yoqlarining yorqinligi, uni erkin uslubda ishlaganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chuqur xis etamiz.

Bu asarni o'zbek tasviri san'atida birinchi realistik ijod namunasi deyish mumkin. O'z paytida u Tretyakov davlat galereyasining doimiy ekspozitsiyasidan o'rinn olgan edi.

Rassom 30 yillarda katta tematik suratlar ishlash uchun etyudlar, xomaki chizgilar sifatida badiiy materiallar to'upladi.

Uning «qujum» nomli pillakashlik fabrikasi, «Registonda 8 mart» polotnolari shular jumlasidandir. U o'z ustozlari D.Kardovskiy, I.Repinidan o'rgangan qayotni chuqur aks ettirish, badiiy obrazlar yaratish an'analarini davom ettirib o'ziga xos ranglarni «politra»si vositasini yaratdi. «Uzum

uzish» yoki «Dugonalar» kartinasida ko'pmillatli vatanimizda xalqlar do'stligi qoyasi obrazi ochib berilgan. Janubning saxiy quyoshi, go'zal farovon turmushi asar kompozitsiyasida moxirona qal etilgan.

Qalin navda va barglari orasidan tushgan quyosh nurlarida pishib etilgan uzum boqlari manzarasi fonida ikki qiz tasvirlangan. Biri o'zbek qizi, ikkinchisi rus qizi, ular kompozitsiya ma'naviy markazini tashkil etadi.

Asarning personajlari, zavq bilan tamosha qilayotgan, qizlar ham, bolalar ham keksa boqbon ham bir oila a'zolaridek ko'rindi.

Tasvir yorqin buyoqlarda ishlangan, unda qavo ko'p, serquyosh O'zbekistonning go'zal tabiatи juda yaxshi nafis ranglarda aks ettirilgan.

P.Benkov, qayoti ko'p ko'rgan, yoshi uluq odamlar suratini chizishni yoqtirardi Uning eng yaxshi yaratilgan portretlaridan biri «Ilg'or kolxozchi portreti» edi. Unda sochlari oq orlagan, meqnatda chinikkan insonning obrazi aks ettirilgan.

1945 yili P.Benkov safdoshi - shogirdi 3.Kovalevskaya bilan bir-birlarini portretlarini chizishdi.

Portret iliq gammada ishlangan bo'lib, ayni ijod pallasini aks ettirgan. Samarqandda o'tgan qayoti tematik kompozitsiyalar, maishiy kartina va portretlarga boy bo'ldi. Lekin manzara ishlashni ham kanda qilmas edi.

U o'zining 20 yillik ijodida «Bibi-Xonimda baqor», «Baqor», «Shaftoli gulladi», «Tokzorli qovli», «Kuzdag'i qovli» kabi ajoyib manzarasini chizib Samarqand obrazini yaratdi. Biz yuqorida ko'rib chiqqan asarlardan P. Benkovning naqadar zabardas rassom bo'lганligiga iqror bo'lamic.

Uning ijodi pedagogik faoliyat bilan chambarchas boqlangan. U Samarqand rassomchilik bilim yurtida umrini oxirigacha yoshlarga saboq berdi, tasviriy san'at sirlarini o'rgatdi. U ajoyib ijodkor yoshlarni tarbiyaladi.

Shular orasida O'zbekiston xalq rassomlari Lutfulla Abdullaev, Malik Nabiev, Abdulkak, Abdullaev, 3. Kovaleskaya, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari Yu. Elizarov, R. Temurov, V.Fadeev, rassomlar A.Roziqov, P.Cherno`shev va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Uning pedagoglik mahoratinin siri, yuqori darajali qobiliyati, chuqr bilimida, yoshlarga bo'lган mexrida edi. U o'z o'quvchilariga kundalik qayotni sevish uni go'zalligini ko'rabilish va bu go'zallikni o'z asarlarida

aks etdirishni uqtirdi. Naturani to'g'ri anglab chizishni, fikr yurgazishni, xotiradan chizish, tasavvurini kuchaytirishni talab qildi.

Muntazam ravishda naturadan soya-yoruq ranglarni o'zgarishini chizib ko'rsatardi.

Shogirdlarini xatolarini ko'rsatib, eqtiyotlik bilan professional mahoratini oshirishga undardi.

Benkov yoshlarda san'atga bo'lган ijodiy qobiliyatini uyqotish kabi muxim qimmatli fazilatlarga ega edi. Samarqandda rassomchilik bilim yurti shakllanishida Benkov o'z tajriba, bilimini ayamadi.

1936 yili Leningraddagi ittifoq ko'rgazmasida uni o'quvchilarning ijodi namunalari yuqori baqolar oldi.

Bu ajoyib insoning, o'z asarlari kabi yoruq saxovatli edi. Shu yillar Respublika rassomchilik maktabini B.Xamdamiy, bilim yurtlarini A.Toshkentboev, L.Abdullaev, A.Roziqovalar, Moskva, Leningrad, Penza bilim yurtlarini I.Ikromov, A.Siddiqiy, U.Tansiqboevlar tamomlab ijodga yo'llanma oldilar.

Ularning ijodiy maxorati Siddiqiyning «To'y» (1932), B.Xamdamiyning «qizil choyxona» (1933), L.Abdullaevning «Paxta terimi» (1931), Roziqovaning «Maktabga» (1932) asarlarida namoyon bo'ldi.

Akram Siddiqiyning «To'y» kartinası katta gulli so'zana fonida kontrast ranglarda, kompozitsiya tuzilishi amaliy san'at yo'lida tasvirlangan. U o'zbek xalq amaliy san'atini yaxshi o'rgangan edi. Realistik san'at yo'lidiagi bu asarlarning yaratilishi Respublika badiiy qayotda muxim voqeа bo'ldi.

Ijodiy izlanishi A.Siddiqiyga yaqin bo'lган O'.Tansiqboev yorqin ranglar tizimida «Choyxona» (1934) kartinasini yaratdi. B.Xamdamiyning tengdoshi rassom A.Toshkenboev meqnat, kundalik xayot voqealarini mavzusidagi asarlar yaratdi. 1934 yili bularni yaratgan kompozitsiya asarlari ko'rgazmada yaxshi baxolandi. P.Benkov bilan Samarqand rasomchilik maktabida yoshlarga dars bergan Z.Kovalevskaya «Teatr lojasida» nomli ajoyib asar yaratdi. Teatr lojasida o'tirgan o'zbek qizlarni nigoqlarida qayajon, go'zallik xis tuyqularini ko'ramiz.

Orqada e'tibor bilan Binoklda kuzatayotgan qari erkak va ayolni xotirjam qarashlari, ko'l harakatlari lirik xolatini ko'ramiz.

Rangtasvir kompozitsiya jiqatidan o'ziga xos milliy koloritda ifoda etilgan. P.Benkov, A. Volkov qo'lida o'qigan B.Xamdamiy, L.Abdullaev, R.Temurov, P.Nasritdinov, A.Raximov, A.Toshkenboev, A.Roziqorvlari o'z ustozlarini yaxshi ananalarini davom ettirdilar, mazmun, qoyalarni

kengaytirdilar. Ayniqsa Samarqand rassomchilik bilim yurtini bitirgan L.Abdullaev dastlabki «Paxta terimi» (1931 i) kartinası bilan tomoshabin va tanqidchilarni fikrini qaratgan bo'lsa, keyinchalik etuk rassom sifatida murakkab kompozitsiya asarlarini yaratdi.

Ayniqsa «Yosh shoir quzurida» kartinasida kompozitsiya ustasi ekanligini tasdiqladi.

Yigit va qizlar yosh shoirning sherlarini eshitmokda. Zamonaviy xonada shoir gavdasi aniq, tasviri kompozitsiya markazini tashkil etadi.

qo'lini ko'tarib tantanali xayajon bilan sher misralarini o'qimokda.

Yoshlarning bilimga chanqoqligi, meqnatga meqr bilan intilishi ifodalangan.

Uning «Mulla Tuychi Toshmuxamedov» portreti, Frontdan qaytish, «qo'riq er ochuvchilar», M.Nabiev, S.Muxammedov, X.Raxmonovlar bilan hamkorlikda yaratilgan «Poyafzalchi Ubay Raxmutallaev brigadasi» asari eng yaxshi san'at asari sifatida O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Yuqorida qayd etib o'tilgan rassomlar 50 yillarda Toshkentdag'i P.Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga dars berdilar, rasm chizish va kompozitsiya asari yaratishni o'rgatdilar. 40-50 yillarda shular bilan bir qatorda V.Ufimtsev, P.Gan, A.Goldrey, Ch.Axmarov, A.Abdullaev kabi zabardast rassomlar yoshlarga tasviriy san'at sirlarini o'rgatdilar.

Maishiy janrda ko'plab asarlar yaratgan rassom N.Kashinadir. Uning «Doira chalayotgan qiz» (1945Y), «Tushki tanaffus» asarida insonni meqnat bilan barqayotligi, uni toza qavo, oftob nurlaridan, tabiatdan zavqlanayotgani o'z aksini topan.

Asar kompozitsiyasi, rang koloriti, milliy ruxda, insonni zamonaviy xislatlari, kompozitsiya tuzish vositalari namoyon bo'lgan. Yoshlarga metodik tavsiya vazifasini bajaradi.

1947 yili Ch.Axmarov, Toshkentdag'i Navoiy nomli opera va balet teatri binosi foyezi devoriga A. Navoiyning «Farxon va Shirin», «Layli va Majnun» asariga baqishlangan mahobatli rangtasvir asarini ishladi. Asosiy mavzu afsona yoki bo'lib o'tgan voqealar bo'lishiga qaramay, tipajlar, ularni aniq o'xshashligi, murakkab kompozitsiya echimida topilgan.

Tasvirdagi odamlar xajmsiz tekislikda, aniq chizgilarda va engil nozik ranglar tusida tasvirlangan.

«Monumental» panno mavzusida A.Navoiyni «Farxon va Shirin», Etti sayyora, «Iskandarnoma», «Layli va Majnun» poemasi asosida «Farxon va Shirinni, Layli va Majnunning uchrashuvi, Baxrom-go'r va Dilorom, Iskandarni to'qon qurilishini kelib-ko'rishi kompozitsiyaning

asosiy negizini tashkil etadi. Shirin kanizaklari bilan Farxodga nigoq tashlab uni qilgan jasoratiga ta'zim qilayotgan vaqtin ifodalangan. Asarni muvafaqqiyatli chiqishda rassomning A. Navoiy dostonlarini yaxshi sinchiklab o'rganganligi katta yordam bergan. Bu asar uchun Ch.Axmarov 1948 yili «Davlat mukofoti»ga sazovar bo'lган edi.

50 yillarda rassom Moskva, qozon, Dnepropetrovsk, Kemerovo shaqarlarida asosan mahoratlilik-devoriy asarlar ustida ishladi. 1961 yilda boshlab Ch. Axmarov yana O'zbekistonda ijod qila boshladi. «A'lochi qiz», «Raqima», «Balerina», Rassom «Temur portreti», «Muqanna Turgunboeva», «Zulfiya» kabi portretlarni yaratdi.

Ayniqsa shoira «Zulfiya portreti»da nozik chizgilar bilan gavda va qo'l holati, liboslar o'ziga xos go'zal xolatda ifodalagan.

Shoirning samimiyligi, yoqimtoy nigoqi chuqur poetik ijod soqibi ekanligi sezilib turadi. Ch.Axmarov zamonaviy o'zbek ayolini ziyo tarqatuvchi ma'naviy boyligini, ichki go'zalligi ochib bergan. Chingiz Axmarov ko'p yillar davomida Beqzod nomli Toshkent davlat milliy rassomlik va dizayn institutida kafedra mudiri, professor bo'lib ishladi.

Ko'plab o'zbek «monumental» chi rassomlarni etishtirib chiqardi va o'ziga xos mahobatli kompozitsiya san'ati maktabini yaratdi.

1953 yili Repin nomidagi Leningrad badiiy akademiyasi institutini R.Axmedov, N.qo'ziboev, T. Oganesov, M.Saidov, V.Zelikov, Muxina nomidagi oliy san'at bilim yurtini V.Jmakin, V.Sosedovlar (1954-55y.). V. Surikov nomidagi Moskva rassomchilik institutini Yu.Elizarov tamomlab yangi kuch va ishtiyoq bilim san'at olamiga kirib kelishdi.

Ijod bilan bir qatorda P.Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga saboq berishdi. Shu sababli o'sha yillari bilim yurtini bitirib chiquvchilarning turli nufuzli oliy badiiy o'quv yurtlariga kirib o'qishlariga zamin yaratildi.

Ular orasida yosh va iktidorlisi N.qo'ziboev edi. Uning qora - qum xavzasiga baqishlangan «qidiruvchilar» (1953y.) diplom ihi a'lo darajada qimoya kilinib, DAK a'zolari va raisi Ioganson maqtoviga sazovor bo'ldi va institut muzeyidan muntazam o'rinni oldi.

O'zbek xalqining orzusi quruq erni ochishga otlangan qalkni shijoati, qayrati N.qo'ziboevning «qidiruvchilar», «Uzboy o'zanida» kartinasini o'z aksini topgan.

Mazmun va kompozitsiya jiqtidan o'ta antiqa zamonaviy bu asarda mahorat bilan, jazirama issiqda matonatli ishlayotgan kishilar obrazini tasvirlab berilgan.

Asar kompozitsiyasida chodir yonidagi shijoatli odamlar, yuk ortilgan tuyalar, maxsus qidiruv ishlari jixozlari tasvirlangan. Inson kuch-qudrati bilan tabiiy ofatlarni engib, cho'lni boqu-bo'stonga aylantirayotganlar tasviri manzarasini guvoqi bo'lamiz. Rassom xaqiqatni jozibali tasvirlagan.

Kompozitsiya jiqatidan mavzu va ma'no bir - biriga juda mos boqlangan. Cho'l oftobi toblangan afsonalar yaratuvchi inson obrazi asarda eng muqim vositadir.

1954 yili Toshkent teatr san'ati institutida rassomchilik fakelteti 1955 yilda Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universitetida badiiy-grafika fakulteta tashkil topdi.

Bu erda dastlab O. Tatevosyan, V.Podgurskiy, M, Shchirovskiy, R.Axmedov, A.Krivenos, N.qo'ziboev, pedagogika institutida Yu.Elizarov, M.Saidov, T.Oganesov, V.Yurovskiylar tasviriy san'at asarlaridan yoshlarga dars berishdi.

Ayniqsa R.Axmedov tashabbus ko'rsatib, ko'p meqnati sindi. Shijoatli olov qalbli bu inson keyinchalik butun umrini O'zbekistan tasviriy san'ati va maktabini tashkil topib rivojlanishiga baqishladi. Samarali meqnati va ijodi uchun nufuzli davlat mukofatlari, orden medallariga sazovor bo'ldi.

Rossiya Badiiy akademisi muqbir a'zosi, O'zbekiston Badiiy akademiyasini akademigi professor Raqim Axmedov institutida ijod laboratoriyasini, tasviriy san'at bo'limlarini ochdi, keyinchalik aspirantura tashkil qildi.

Uning maqsadi yosh iqdidorli rassomlarni tarbiyalab, o'qitish va O'zbekiston tasviriy san'atini rivojlantirishdan iborat edi.

Musavvirning «Ona uylari», «Tong», «Sora Axmedova» portreti «Lola» portreti «Oqtoshda baqor», «Surxondaryolik ayol», asarlarida jozibali ranglar vositasida o'zbek xalqining o'tmishi, ichki dunyosi, xis-tuyqu, orzulari o'z ifodasini topgan.

Raqim Axmedov dastlab portret soxasida juda berilib ijod qildi. Zamondoshlarni betakror obrazini, mazmun qoyalarni ifodalashda o'ziga xos badiiy til topdi. Portret yaratganda, nafaqat uni tashqi qiyofasita, ranglarni uyqunligiga, balki uni chexrasidagi insoniy fazilatlarni ochib berishga intilardi. Shuning uchun mexnatsevar xalqning milliy xususiyatlarini, o'zida mujassamlashtirgan ayollar, qariyalar, o'spirin-yoshlarni obrazini yaratishga qaratilgan edi.

«Cho'pon portreti» da tabiat bilan kurashib oqir meqnatni yoshlikdayoq elkasiga olgan 40-yillar avlodini taqdirini tasvirlagan.

Cho'pon yigit qiyofasida sinchiklab qarayotgan nigoqi gavda kompozitsiyasiga boqlanib ketgan, tayoqqa suyalgan, qabargan nullari va suyalgan gavdasi jazirama oftobda kuygan dala o'tlari, qaroratda qizigan tabiat manzarasi fonida - issiq ranglarda o'z echimini topgan. Portet kompozitsiyasini assosiy mavzuni bu inson obrazidir.

Boshiga kattalarga taqlid qilib o'ralgan qizil ro'molcha, oqir meqnatni anglagan, pushti ko'yakdagagi uspirin bola tasvirlangan. Bu ajib asar qozirda O'zbekiston Davlat san'at muzeyida avaylab saqlanmoqda.

1956 yili Raqim Aqmedov Birchmulla qishloqida, ikki o'qli hamda turmush o'rtog'i frontdan qaytmagan, meqnatda qaddi bukilmagan mardona keksa ayol portreti, «Ona uylari» asarini yaratdi. Men shu portret yaratilishini shoxidi bo'lганman. Chunki rassomchilik instituti talabasi sifatida Raxim aka raqbarligida dala amaliyoti - plenerni o'tar edik. Ayol ko'pincha qariyalarga xos o'tirar, qayolga cho'mar edi. Ayol kechinmalari, onadan yosh etim qolgan Raxim akaning baqrini to'lqinlantirib, unga meqr, chuqur qurmat uyqotdi.

«Ona uylari» portreti kompozitsiyasida, figura biroz oldinga chiqqan. Yongoq daraxti yonida yostiqqa suyanib tizza ko'ziga qo'l panjalarini saranjom qo'yib, qayolga cho'mgan ayol qiyofasi, kompozitsiya jiqatidan klassik mavqeiga ega, juda muvafaqqiyatlil topilgan. Ayolni yuzidagi chuqur ruqiy qolatni, uning hamgin yuzidagi katta yoruq ko'zlarida, meqnatda toblangan yuz chexrasida xaykalga xos o'z ifodasini topgan. Gavda, «siluet» aniq, engil ranglardagi manzara fonida, ko'k, binafsha, pushti, yashil, sariq ranglarda shiddatli maxorat bilan tasvirlangan.

«qozirgi davrda janrli portretga ko'proq ahamiyat berish kerak» deydi R.Axmedov, chunki insonni tabiiy sharoitda meqnat jarayonida ichki kechirmalarini ishonarli chuqur ifodalab berish shariti mavjud.

Ranglarni maftuni bo'lган R. Axmedov ko'p zamondoshlari qatori 1959 yil «Surxondaryoli qiz» portretini yaratdi.

Sariq ranglar fonida boshiga oq ro'mol o'rab o'tirgan, yuzlari quyoshda toblangan bo'qdoy rang ayol obrazini yaratdi.

Egnidagi libosi qizil - zarqaldoq. dekorativ ranglarda bo'ynidagi yaltiroq kumush tangalar, tumorlar o'ziga xos uslubda tasvirlangan.

Raxim Axmedov bilan bir qatorda Beqzod nomli milliy rassomlik va dizayn institutida Ch.Axmarov, N.qo'ziboev, T.Oganesov, V.Jmakin, V.Sosedov, V.Kovinin, M.Saidov kabilar yoshlarni tarbiyalashda o'z xissalarini ko'shdilar.

M.Saidovni «Askiya» (1964y.) asarida paxta dalasi manzarasi, yoqoch karovatda dam olayotgan paxtakorlar asar ishtirokchilari.

Kompozitsiya markazida qo'lida piyola ushlagan qariya, navbatdagi xazil musobaqa qalabasidan so'ngi yuzidagi kulgi, iliq cheqra, ro'parasida xazildan yutqazib o'zini noqulay qolatda sezib o'tirgan raqib tasvirlangan. Xushchaqachaq qazil kulgidan o'zini tutolmay o'tirgan atrofdagi odamlar qar xil xolatlar tasvirlangan. Tomoshabinni e'tiborini o'ziga qaratgan chol figurasi kartinada asosiy boqlovchi - kompozitsiya markazini tashkil etadi. qar bir tipaj o'ziga xos psixologik xolatda jozibali tillarang koloritda ifoda etilgan.

V.Jmakining «Paranji tashlagan ayol» (1957Y) kartinasi ko'p figurali monumental kompozitsiya asarida dramatik qolat tasvirlangan. Asar mazmuni yaxlit kompozitsiya echimi chuqur psixologik ko'rsatilgan.

Yoruq oftobli ko'chada bo'layotgan tarixiy dramatik voqeа ifodalangan. Kompozitsiya markazini paranji tashlab salobatli turgan o'zbek ayoli tashkil etadi.

Muallif keljakka intilgan ayol obrazini, eski tuzim vakillari, ruxoniylarga kontrast qolatda qarama-qarshi qo'yilgan.

V.I. Jmakin kartinada «tipaj»lar obrazini, ularning ruxiy munossabatlarini, ularning liboslarini kontrast ranglarda ustalik bilan tasvirlab bergan.

1955 yili Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida BGF tashkil topdi.

Bu erda dastlabki yillarda Yu. Elizarov, M.Saidov, T.Oganesov, Yurovsiy A. Goldrey, M.Nabiev yoshlarga tasviriy san'atdan saboq berishdi, tasviriy san'at va ijod asoslarini o'rgatishdi, Respublikamiz maorif soqasiga yosh rassom - o'qituvchilarни tarbiyalash bilan bir qatorda , ko'plab ijodiy asarlar yaratishdi.

Moskvadagi Surikov nomidagi rassomchilik institutida akademik I.Grabar, S.Gerasimov ko'lida ta'lim olgan Yu.Eliarovning ijodi dastlab portret soxasida boshlanib, shakllandı.

Uning «Paxtakor qiz», «Kabutar kutargan k,iz», «Onalik» asarlarida, rassomning kalorit, nozik ranglar kurish, kabi yaxshi xislatlari namoyon bo'lган.

«Kabutar ko'targan qiz» (1953Y) ochik qavoda (planerda) bajarilgan. Toklar soyasida o'tirgan yosh o'zbek qizchasi obrazi namoyon bo'lган yumshoq tashabbusli chexrasi aks ettirilgan. Chambarak qilib o'rilgan qora sochlari, iliq engil qarashlari, uning erkin qolatda o'tirishida o'ziga xos qarakter ifodasini beradi, Uyning devoriga tushgan yorqin oftob nuri, xovlidagi yashil maysa fonida bayram libosidagi qizning ruxiy holati

jozibali tarzda tasvirlab berilgan. Yuzidagi iliq, libosidagi sovuq reflekslar rassom tasavvuridagi go'zal, haqqonoy ifodani namoyon etib turadi.

Yu. Elizarov yozuvchi «Sadriddin Liniy», rassom «Rashid Temurov» portreti va bir necha mavzuli, tarixiy kartinalar yaratdi: «Xalima Nosirovaning ijodiy kechasi» kartinasi, «Registon maydonida tantana» shular jumlasidandir.

Yosh pedagog - rassomlarni tarbiyalashda ayniqsa Malik Nabievning xizmati juda katta. U 30 yil davomida BGF rang tasvir kafedrasining mudiri bo'lib ishladi. Mutaxassis fanlarni o'qitishni takomillashtirishga, ilmiy nazariy, amaliy qo'llanmalar yaratishda o'z xissasini qo'shdi.

Kompozitsiyada milliy ijod mакtabini shakllantirdi. Shu bilan birga tinmay ijod qilib nufuzli ko'rgazmalarda qatnashib, o'z malakasini takomillashtirdi.

Uning samarali ijodiy meqnati, davlat tomonidan yukori darajada taqdirlandi. U O'zbekiston Badiiy akademiyasining faxriy a'zosi professoridir.

M.Nabievni «Eski maktab» asari o'ta mahorat bilan tasvirlangan.

Tanlangan mavzu tarixiy asar tuzilishi (kompozitsiyasi) ranglar majmuasi, korishmasi bir - biriga mutanosib uyqunlashib ketgan. «Eski maktab»da milliy musavvirimiz tomonidan, xaqoniylit o'z aksini topgan.

hamma bolalar boshida jajjigina jiyakli gilamkashta, chamandagul, Marqilon nusxa do'ppilar tasvirlangan bo'lib, milliy kiyimlar yoshlariga qarab topilgan ularga niqoyatda yarashgan. Bolalarda sabr, odob, ilm olishga moyillik, andisha kabi o'zbekona xislatlar sezilmoqda.

Ular cho'qqa tushib, bo'yra ustida o'tirishibdi, oldilariga pastak yasama kursi, uning ustida darsliklar.

Domladagi aqlu-zakovat, ilmlariga xos ko'rinish, xona ichi bilan uyqun qilib aks ettirlgan. Bu asarda qar bir bolaning bir - birini takrorlamagan qolatlari qayotiy topilgan, domla qiyofasining ko'rinishi ko'p yillik tajriba natijasida yaxshi tasvirlanganini qayd etamiz.

M. Nabiev xalq baxodirlari yunon bosqichlariga qarshi jang qilgan Spitamen qo'zqoloni jasorati bilan arablarni qayratda qoldirgan «Muqanna qo'zqoloni» tarixiy asarlarini yaratdi.

Abu Rayxon Beruniy obrazi tasviri, uning qomusiy olim va mutafakkir inson ekanligi, uzoq vaqt davomida mashaqqatli ijodiy meqnat qilish, alloma yashagan davrni yaxshi o'rganish, bir necha bor eskiz va ranglavxalarni ishslash natijasida yuzaga keldi.

M.Nabievning «Beruniy portreti» birinchi bor 1950 yilda ikkinchi varianti 1974 yili allomaning 1000 yilligi o'tkazilishiga baqishlangan

tanlovda qolib chiqdi. YuNEESKO tomonidan chaqiriladigan «Kurer» jurnalining 1974yil iyul soni muqovasida bosilib chiqdi va dunyo qalqlariga borib etdi.

Rassom asarda ilm sirlarini echish uchun butun vujudi bilan kirishgan tarixiy shaxs, insonparvar olim Abu Rayxon Beruniyning butun salobatini, nufuzini gavdalantiradi. Kartinaning keyingi planlaridagi kitoblar, tibbiyat, ilm fanga boqliq bo'lgan buyumlar, ayniqsa portret kompozitsiya echimidagi sharqona taqlil, yuz qiyofasidagi chexra chizgilar, ruxiy holati mujassamlashib yaxlit Beruniy obrazini, uning qomusiy olim mutafakkir inson ekanini yanada bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan.

Shuningdek M. Nabiev Soxib qiron Amir Temur portretini 1995-96 yilda yaratdi. U. davlat tanlov komissiyasi tomonidan umumnamuna sifatida qabul qilindi.

Tasvirda Amir Temur sarkardalik kiyimida namoyon bo'ladi. Taxtda o'ychan o'tirgan soqibqiron, qilichga qo'llarini qo'yib, kuchga, aql-zakovatga to'lib, davlat osoyishtaligi va farovonligi, xalqlar inoqligini uylamoqda. Tarixchi Arabshox tariflaganidek uning boshiga kiygan toji barvasta qomatlariga juda yarashgan.

Portret qavorang, zarjal jigarrang, qirmizi va oppoq moybo'yoqlarda nixoyasiga etkazilgan taxtning bir tarafida quyoshdek nur sochayotgan jilvakor qadimiy Maroqand me'morchiligi ko'rinishlari aks etgan.

Kompozitsiya jiqatdan portret tasvirida shijoatli, kuch - qudratga to'liq, inson qiyofasi o'ziga xos salobatli qomatda tasvirlangan.

M. Nabiev tarixiy allomalarda Zaxiriddin Muxammed Bobur, Alisher Navoiy, Ibn Sino siymolarini, ko'plab zamondoshlar portretlarini yaratgan pedagog rassomdir.

Biz yuqorida faqat 2ta portret yaratilishi haqida taxlil qilib qayd etdik xolos.

M. Nabiev ham R.Axmedov kabi butun umrini ijodiy asarlar yaratish bilan birga 35-40 yil davomida TDPU yoshlariga tasviriyl san'atdan saboq berishga o'ziga xos san'at, kompozitsiya ijod mifikni shakllantirishga sarflab keldi.

60 yillari tasviriyl san'at ijodkorlari qatoriga Toshkent teatr — rassomchilik instituta, Leningrad badiiy akademiyasini bitirgan bir gurux iqtidorli yosh rassomlar kelib qo'shildi.

Ular orasida G.Abduraqmonov, B. Boboev, V.Burmakin, A.Boymatov, E.Melnikov, V.Perov, N.Shin, R.Chorievlar qayotga chanqoqlik, shijoat bilan ish boshladilar.

B.Boboevni uch sismdan iborat «Farqona suitasi» (1970y.) asari kompozitsiyasini olib ko'ramiz.

1) «Furqatning qo'qon bilan xayrlashuvi», 2) «Ishga», 3) «Rishtoli o'ta kulol» uchlik ishlarning normalarida birlik sezilmasada, «triptix» shaklidagi bu asarda chuqr qayot mazmuni o'z aksini topgan.

Farqona vodiysi - O'zbekistonning go'zal o'lkkalaridan biri. Farqona haqidagi «triptix» uchlik, qalqning taqdiri, qayot kechinmalari haqidagi keng ma'nodagi dostondir desak yanglishmaymiz.

Asarni birinchi qismida shoir Furqatni do'stlari, ustozlari bilan qayrlashuvi haqidagi lirk poemasi tasvir vositalarida kompozitsiya jiqtadan qayotiy mukammal tasvirlangan.

Asarni markaziy qismi keng ponoramada meqnatkash qalkning, Farqona kanali qurilishiga otlangan grafik uslubda, yoruq va issiq rang koloriti tasvirlangan.

«Triptix»ni uchinchi qismida usta kulolning ijod qilishi jarayoni sovuq ko'kyashil ranglar gammasida tasvirlangan.

Dumaloq - oval shaklidagi laganlarni va suv xavzasini plastik shakli, tandir oldida laganga bezak berayotgan usta yaxlit kompozitsiya tuzilishida ifodalangan va tomoshabinga nozik, go'zal dunyon namoyon etdi. Bu asari uchun B.Boboev sobiq ittifoq Badiiy akademiyasining kumush medaliga sazovor bo'lgan edi.

B.Boboev 60-yillarda o'z ijodida o'rta asr miniatyura san'ati ustalarining tajriba - namunalaridan va Deynekaning dastlabki izlanish natijalaridan foydalanishga harakat qilgan.

Shunday rassomlardan biri Vladimr Burmakin. Ijodiy diapazoni keng bu rassom xayot mazmuni, bo'lgan voqealarni chuqr anglagan xolda o'z kompozitsiyasida asar moqiyatini jozibali ochib berishga erishadi va tomoshabinni o'ziga rom etadi. Uning «Xamon kutayotgan ayollar», «Boysun ayoli» asarlarida mukammal kompozitsiya echimi, o'ziga xos boy rang koloriti o'z ifodasini topgan. Latofatli yosh ayol, ona obrazini yaratish, mavzuni chuqr anglash natijasidir.

Uning «Daraxt haqidagi poema» kartinasida asar qaxramonlari, ikki yoshning qayot taqdiri tasviri tabiat qonunlarni to'g'risida falsafiy fikr yurgizishga undab tomoshabinnni o'ylantirib qo'yadi.

Ikki yoshning ezgu xis-tuyqularini ayni tabiat qo'ynida bir-biriga izzor etishi holati, daraxt oldida kompozitsiya jiqtidan falsafiy-lirk echimini topgan.

70-yillari Moskva Leningrad badiiy o'quv yurtlarini J.Umarbekov, B.Jalolov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov kabi yosh iqtidorli rassomlar bitirib keldilar.

Ayniqsa Javlon Umarbekov va Baqodir Jalolovlar talabalik yillaridayoq badiiy ko'rgazmalarda qatnasha boshladilar. J.Umarbekov, aslida Butun ittifoq kinomotografiya institutini tomonlagan bo'lsada, tasviriy san'atdagi ijod yo'llini portret, maishiy tarixiy janrda boshladi.

Uning dastlabki «Alisher va Xusayn Boyqaroning yoshligi» asari sharq miniatyura an'analari uslubida yaratilgan. Ikki yosh o'spirinning muloqoti, lirk-poetik holati kompozitsiya echimida ustalik bilan tasvirlangan.

Uyg'onish davri tasviriy san'at ustalari asarlaridan ta'sirlanib yaratgan. «Tafakkurli inson» asari maqtovga sazovordir.

Asarda inson, koinot taraqiyoti, abadiyat va zamon haqidagi mavzu asos kilib olingan.

Bu asar muallifning ijod cho'qqisi desak mubolaqa bo'lmaydi. Murakkab kompozitsiya echimida, estetik did, yuqori malakaviy saviya, mahorat, chuqur falsafiy fikrlash o'z aksini topgan.

1986 yili Leningradda bo'lib o'tgan O'zbekiston tasviriy san'ati badiiy ko'rgazmasida Mo`lnikov tomonidan yuqori baqolandi.

Baqodir Jalolov Leningrad rassomchilik ijodiy maktabini chuqur egallagan rassomlardir. U o'z asar personajlarini sodda tabiiy holda atrofga, kasbga munosabatini, ichki qis-tuyqularini, manaviy boyligini ifodalaydi.

Rassomning saloxiyati o'tkirligi «Avtoportret», «S.Axunov», «Komil Yormatov» portretlarida o'z ifodasini topgan. Asardagi maqomiga etgan qalam tasvir, chiziqlar, kompozitsiya tuzish maxorati, uni yuksak saviyali bilimidan dalolat beradi. Rassomning mazmuni kompozitsiya echimida monumental yo'naliш asosiy vosita bo'lib, uyg'onish davri rassomlarning badiiy tamoyillariga asoslangan.

U mahobatli rang tasvir hamda dastgoqli rang tasvir san'ati asoslarini professor A. Mo`lnikovdan o'rgandi.

Keyinchalik mukammal akademik qalam tasvirga asoslanib, Salvador Dali, Albrext Dyurer ijodi va jaxon badiiy meroslarini o'rganib, badiiy tafakkurini olqa siljитди.

Uning «Niyatga etish», «Folbinlik», «Metamorfoza», «Ikkilanish», «Yaratuvchi-inson», «Ikki asos kurashi» asarlari turkumida xayotni falsafiy muammolar "insonning yashash uchun kurashi, undagi ma'naviy dunyoqarashning shakllanishi kabi masalalarni olqa suradi. Uni tasavvurida uyg'onish davri rassomlarining qoyalari chuqriz qoldirgan.

U monumental san'at asarlari, Evropa va va sharq «progressiv» ijodkorlar yo'naliishida bajarilgan asar sifatida bo'lajak rassomlarni monumental kompozitsiya tuzilishini o'rganishida asosiy dastur, vosita bo'lib qizmat qiladi.

## XOTIMA

Har qanday san'atni turi insonga o'z ta'sirini o'tkazib unda dunyoqarashini shakllantiradi.

Tasviriy san'at insonda hayotdagi ko'rsatgan jasoratini, fikr va ichki xissiyotlarini aks ettiradi.

O'zbek tasviriy san'atini dastlabki rivojlanishi bosqichida rassomlar haqiqatni yarim manzara shaklida tasvirlashdi. Ularni sharqona qayot, yodgorlik obidalar fonida, galla-qovur bozor qayoti, choyxonada xordiq chiqarayotgan rang-barang liboslardagi odamlar qiziqtirdi.

20 asr 90 yillarining ikkinchi yarmida tasviriy san'atda maishiy janr rivojlanishi muhim hodisa bo'ldi.

Xalqning yangi turmush-tarzi, qishloq hayoti, paxta dalalaridagi mehnat jarayoni, o'zbek rassomlarining asosiy mavzusi bo'lib qoldi. O'zbekiston tasviriy san'ati qozirgi bosqichda «professionalizm» - mahorat jiqatidan o'zining yuqori mavqeiga ega bo'ldi.

Hozirgi zamon san'ati rivojlanishiga, rassomning ijodiy izlanishi yangi mazmunli qoya, insonlarning ma'naviy - ma'rifiy talablarini qondirish bilan boqliqdir. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi echimi murakkab ruxiy holatini topish, rassomdan kundalik qayotdagi go'zallikni aks ettirish muammolarini, zamondoshlarning ichki xis - tuyqularini sezishni, to'g'ri chuqriz tasavvur etishshni talab qiladi.

Rassomlar zimmasiga o'z asarlarida badiiy obrazlarni yaratish vositalarini boyitish, taraqqiy etgan jaqon ilg'or rassomlari tajribalari bilan dunyoqarashlari ko'lagini kengaytirish kabi ma'suliyatlar qo'yilgan.

Mustaqillik tufayli boshlangan buyuk tarixiy taraqqiyot yo'lidan oqishmay olqa rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi oldida endilikda bir qancha muqim vazifa va muammolar turibdi.

XXI asrga sobiqqadamlik bilan kirib kelayotgan O'zbekiston Respublikasining kelajagi ilm -fan, ta'lim -tarbiya taraqqiyoti bilan bevosita boqliqdir. 1992 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun asosida, 1997 yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida jamiyatimizda ta'limni tubdan isloq qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va ma'rifat qar qanday mamlakatni yuksaklikka ko'taradi, uni taraqqiyotini ta'minlaydi. Darxaqiqat, bugun xalqaro qayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, unda g'arbiy qudrat emas, balki intellektual saloxiyat, aql - idrok, fikr ilg'or texnologiyalar xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Endilikda qar qaysi davlat, qar qaysi millat, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyat va ma'naviyati bilan kuchlidir. «Kuch - bilim va tafakkurda» dir - deydi I. Karimov.

Mamlakatimiz kelajagi so'zsiz kadrlar tayyorlash bilan bevosita boqliq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lism uchun, ta'lim - tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni davr talabi darajasiga ko'tarish, jamiyatimizning, qar birimizning oldimizdagi eng muqim vazifalardan biri bo'lmoqi kerak.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O.K.Apxustin «Tasviriy san'at asoslari» 1967y., Toshkent «O'qituvchi» 1984 y.
2. B.Asimova «Natyurmort chizish va tasvirlash metodikasi» 1984 y., Toshkent «O'qituvchi».
3. G.M.Abduraxmonov «Tasviriy san'at kompozitsiyasi» 1996 y. Toshkent.
4. M.I.Zemskaya «Aleksandr Volkov. Master granatovoy chayxano`». «Sovetskiy xudojnik» 1975 y.
5. V. Shoroxov «Osnova` kompozitsii» Moskva «Prosveshenie 1979 y.»
6. A.Egamberdiev «Janrovaya jivopis» O'zbekistana. Izd. «G'ofur Gulyam», Toshkent, 1989 y.
7. A.R.Umarov «Abudulqaq Abdullaev» izd. «Sovetskiy xudojnik», 1971 g.
8. M.Sokolova P.P.Benkov «Vospominaniya i perepiski». izd. «G'.Gulyama» Toshkent. 1996 y.